

Buxoro viloyatida

qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi


2025- yil yanvar - dekabr oylari uchun

- I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
- II. Buxoro viloyati qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida
- III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish
- IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni
- V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025 - yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 48 312,9 mlrd so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 47 805,9 mlrd so'mni, o'rmon xo'jaligi – 319,1 mlrd so'mni, baliqchilik xo'jaligi – 187,8 mlrd so'mni tashkil qildi.

Buxoro viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o'sish sur'ati



II. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida

2025 - yilning yanvar- dekabr oylarida hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Jondor (6 119,6 mlrd so'm), G'ijduvon (5 375,7 mlrd so'm), Romitan (4 971,2 mlrd so'm), Buxoro (4 947,6 mlrd so'm), Qorako'l (4 530,9 mlrd so'm) va Peshku (4 571,2 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kogon shahar (299,6 mlrd so'm), Buxoro shahar (725,9 mlrd so'm) va Qorovulbozor tumani (1 437,1 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

	Hajm mlrd so'm	O'sish sur'ati % da
Buxoro viloyati	48 312,9	104,3
Buxoro shahar.	725,9	128,5
Kogon shahar	299,6	105,3
Olot tumani	3 367,9	105,7
Buxoro tumani	4 947,6	103,6
Vobkent tumani	4 155,8	104,2
G'ijduvon tumani	5 375,7	101,6
Kogon tumani	3 412,6	101,9
Qorako'l tumani	4 530,9	104,5
Qorovulbozor tumani	1 437,1	107,5
Peshku tumani	4 571,2	102,4
Romitan tumani	4 971,2	105,5
Jondor tumani	6 119,6	104,6
Shofirkon tumani	4 397,8	105,6

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati tahlil qilinganda, yuqori o'sish sur'atlari Buxoro shahar (128,5 %), Qorovulbozor (107,5 %), Olot (105,7 %), Shofirkon (105,6 %), Romitan (105,5 %) va Kogon shahar (105,3 %), Jondor (104,6 %) va Qorako'l (104,5 %) tumanlarida qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan G'ijduvon (101,6 %), Kogon (101,9 %), Peshku (102,4 %), Buxoro (103,6 %) va Vobkent (104,2 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish

2025 - yilning yanvar- dekabr oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 47 116,6 mlrd so'mni yoki 2024 yilning mos davriga nisbatan 104,3 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 21 282,7 mlrd so'mni (107,5 %), chorvachilik mahsulotlari 25 833,9 mlrd so'mni (101,4 %) tashkil qildi.

Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Jondor (5 944,5 mlrd so'm), G'ijduvon (5 230,2 mlrd so'm), Buxoro (4 869,8 mlrd so'm) va Romitan (4 859,3 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kogon shahar (280,5 mlrd so'm), Buxoro shahar (698,6 mlrd so'm) va Qorovulbozor tumanini (1 365,0 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Buxoro shahar (127,5 %), Qorovulbozor (107,3 %) va Olot (105,7 %) tumanlarida qayd etildi. G'ijduvon (101,8 %), Kogon (101,9 %) va Peshku (102,6 %) tumanida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 65,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 27,5 % i fermer xo'jaliklariga, 7,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi G'ijduvon (3 186,7 mlrd so'm), Jondor (2 994,9 mlrd so'm), Buxoro (2 608,4 mlrd so'm), Qorako'l (2 583,4 mlrd so'm) va Shofirkon (2 450,0 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kogon shahar (272,0 mlrd so'm), Buxoro shahar (390,1 mlrd so'm) va Qorovulbozor tumanini (576,2 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Buxoro shahar (144,7 %), Qorovulbozor (110,8 %), Kogon shaharda (105,4 %), Shofirkon (101,7 %) va Buxoro (101,1 %) tumanlarida qayd etildi. Romitan (100,0 %), G'ijduvon (100,4 %), Kogon (100,4 %), Jondor (100,4 %), Peshku (100,5 %), Qorako'l (100,6 %), Vobkent (100,7 %) va Olot (100,8 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2025 yilning yanvar- dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 319,1 ming tonna go'sht, 1 146,0 ming tonna sut, 602,3 mln dona tuxum, 4 497,0 tonna qirqib olingan jun, 626,5 ming dona qorako'l teri yetishtirildi va 6,7 ming tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,0 % ni, sog'ib olingan sut – 101,1 % ni, olingan tuxum – 103,3 % ni, qirqib olingan jun – 103,5 % ni, olingan qorako'l teri – 104,7 % ni hamda ovlangan baliqlar – 105,2 % ni tashkil qildi.

2025 - yil yanvar- dekabr oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan 6,2 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 82,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 11,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.



Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning 8,0 % i fermer xo'jaliklari, 89,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 2,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

**2025 - yil yanvar- dekabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar**

	Yanvar-dekabr 2025 y.	O'sish sur'ati % da
Go'sht (tirik vaznda), ming tonna	319,1	102,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	19,9	110,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	261,9	99,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	37,3	123,5
Sut, ming tonna	1 146,0	101,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	91,9	109,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 029,3	99,5
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	24,8	172,3
Tuxum, mln. dona	602,3	103,3
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	136,6	105,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	267,0	102,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	198,7	103,5
Jun, tonna	4 497,0	103,5
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	717,0	106,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	3 401,0	102,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	379,0	111,0
Qorako'l teri, ming dona	626,5	104,7
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	67,5	108,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	519,8	104,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	39,2	108,1
Baliq, tonna	6 705,0	105,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	2 142,5	105,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 039,4	103,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	3 523,1	105,4

Shu bilan birga, olingan tuxumning 22,7 % i fermer xo'jaliklariga, 44,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 33,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Shuningdek, qirqib olingan junning 15,9 % i fermer xo'jaliklari, 75,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 8,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

Bundan tashqari, olingan qorako'l terining 10,8 % i fermer xo'jaliklariga, 83,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 6,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, ovlangan baliqlarning 32,0 % i fermer xo'jaliklariga, 15,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 52,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.

Hududlar kesimida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari hajmi

	Go'sht (tirik vaznda), tonna	Sut, tonna	Tuxum, ming dona
Buxoro viloyati	319 077	1 145 951,0	602 257,0
Buxoro shahar.	6 971,2	6 197,4	19 992,1
Kogon shahar	6 389,7	501,5	1 310,4
Olot tumani	20 560,8	81 591,3	26 468,5
Buxoro tumani	32 241,5	119 267,4	45 455,4
Vobkent tumani	23 774,5	114 668,2	35 249,9
G'ijduvon tumani	38 552,6	145 870,7	60 578,0
Kogon tumani	33 106,0	61 764,8	99 458,8
Qorako'l tumani	30 692,0	114 360,6	54 023,5
Qorovulbozor tumani	8 503,9	22 147,2	15 724,0
Peshku tumani	24 758,5	122 422,0	31 888,6
Romitan tumani	28 545,0	112 379,2	31 275,7
Jondor tumani	36 928,0	120 659,2	146 021,4
Shofirkon tumani	28 053,3	124 121,5	34 810,7

Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Jondor (2 949,6 mlrd so'm), Romitan (2 518,4 mlrd so'm), Buxoro (2 261,4 mlrd so'm), Peshku (2 258,1 mlrd so'm) va G'ijduvon (2 043,5 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kogon shahar (8,5 mlrd so'm), Buxoro shahar (307,9 mlrd so'm) va Qorovulbozor tumani (788,8 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Buxoro shahar (113,4 %), Olot (111,2 %), Shofirkon (110,2 %), Romitan (109,9 %), Qorako'l (109,4 %), Jondor (108,1 %) va Vobkent (107,8 %) tumanlarida qayd etildi. Kogon shahar (102,8 %), G'ijduvon (103,6 %), Peshku (104,3 %), Qorovulbozor (105,0 %), Kogon (105,4 %) va Buxoro (105,9 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2025 yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 761,7 ming tonna don, 306,0 ming tonna kartoshka, 1 190,5 tonna sabzavot, 240,4 tonna poliz, 313,0 tonna meva rezavorlar va 241,4 ming tonna uzum yetishtirilgan.

Hisobot davrida yetishtirilgan don hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 112,9 % ni, kartoshka – 96,1 % ni, jami sabzavotlar – 105,9 % ni, oziqbob poliz – 112,4 % ni, meva va rezavorlar – 102,4 % ni hamda uzum – 103,9 % ni tashkil qildi.

2025 - yil yanvar- dekabr oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan donning umumiy hajmidan 71,9 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 18,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 9,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Shunga mos ravishda yetishtirilgan kartoshkaning 20,1 % i fermer xo'jaliklari, 77,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 2,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

Shu bilan birga, yetishtirilgan sabzavotlarning 29,3 % i fermer xo'jaliklariga, 67,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Shuningdek, yetishtirilgan polizning 45,2 % i fermer xo'jaliklari, 54,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 0,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

Bundan tashqari, yetishtirilgan meva va rezavorlarning 58,3 % i fermer xo'jaliklariga, 39,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, yetishtirilgan uzumning 45,9 % i fermer xo'jaliklariga, 51,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.



**2025 - yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan asosiy
turdagi dehqonchilik mahsulotlari**

	Yanvar-dekabr 2025 y.	O'sish sur'ati % da
Jami don, ming tonna	761,7	112,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	548,0	107,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	144,0	136,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	69,7	115,0
Kartoshka, ming tonna	306,0	96,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	61,4	111,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	238,5	92,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	6,1	131,1
Sabzavotlar jami, ming tonna	1 190,5	105,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	349,3	102,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	806,7	107,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	34,5	114,0
Poliz, ming tonna	240,4	112,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	108,6	106,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	129,7	117,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2,1	125,1
Meva va rezavorlar, ming tonna	313,0	102,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	182,5	102,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	123,5	100,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	7,0	143,0
Uzum, ming tonna	241,4	103,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	110,8	106,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	123,7	100,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	6,9	136,5

**Hududlar kesimida yetishtirilgan asosiy turdagi
dehqonchilik mahsulotlari hajmi**

	<i>Jami don, tonna</i>	<i>Sabzavotlar, tonna</i>	<i>Meva va rezavorlar, tonna</i>
Buxoro viloyati	761 690,0	1 190 463,0	312 996,0
Buxoro shahar.	4 367,3	33 180,3	4 128,3
Kogon shahar	-	706,8	121,5
Olot tumani	66 710,9	89 115,0	12 117,3
Buxoro tumani	50 420,4	132 996,2	40 240,4
Vobkent tumani	71 793,1	95 792,8	30 640,5
G'ijduvon tumani	64 035,3	122 327,0	27 753,1
Kogon tumani	40 045,0	42 797,0	11 082,4
Qorako'l tumani	71 985,2	112 422,2	20 774,1
Qorovulbozor tumani	53 730,5	32 036,4	4 599,2
Peshku tumani	78 478,8	127 702,2	35 890,1
Romitan tumani	80 002,9	149 849,1	29 868,4
Jondor tumani	110 414,9	143 524,8	68 750,8
Shofirkon tumani	69 705,7	108 013,2	27 029,9

**Hududlar kesimida yetishtirilgan asosiy turdagi
dehqonchilik mahsulotlari hajmi**

	<i>Kartoshka, tonna</i>	<i>Poliz, tonna</i>	<i>Uzum, tonna</i>
Buxoro viloyati	305 960	240 372,0	241 389,0
Buxoro shahar.	2 744,2	1 572,8	2 391,8
Kogon shahar	853,7	-	1,0
Olot tumani	24 898,6	28 540,9	7 155,5
Buxoro tumani	38 703,4	19 505,3	46 082,1
Vobkent tumani	28 167,3	11 608,1	28 163,8
G'ijduvon tumani	33 442,0	20 442,0	25 510,1
Kogon tumani	25 662,2	4 493,9	5 637,2
Qorako'l tumani	18 880,2	20 498,0	18 161,8
Qorovulbozor tumani	4 550,2	24 175,0	1 747,3
Peshku tumani	45 437,7	44 369,3	15 872,8
Romitan tumani	28 806,0	22 379,6	29 963,5
Jondor tumani	36 364,7	29 530,6	34 968,9
Shofirkon tumani	17 449,8	13 256,5	25 733,2

IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2026 - yilning 1- yanvar holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 1 403,9 ming boshga yetdi, (2025- yilning 1- yanvar holatiga nisbatan 0,9 % ga ko'p), sigirlar 460,9 ming boshga (0,8 % ga ko'p), qo'y va echkilar 2 591,5 ming boshga (1,4 % ga ko'p), parrandalar 8 830,5 ming boshga (7,0 % ga ko'p) yetdi.

2026 - yilning 1- yanvar holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Ming bosh	O'sish sur'ati
Yirik shoxli qoramollar	1 403,9	100,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	133,0	105,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 236,8	100,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	34,1	105,6
shundan sigirlar	460,5	100,8
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	46,6	106,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	402,1	99,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	11,8	120,4
Qo'y va echkilar	2 591,5	101,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	503,9	103,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 863,2	100,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	224,4	107,6
Otlar	9,7	109,5
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	4,8	111,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	2,9	111,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2,0	103,4
Parrandalar	8 830,5	107,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	2 365,5	102,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	2 320,4	100,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	4 144,6	114,1

2026 - yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 9,5 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 88,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan 10,1 % i fermer xo'jaliklariga, 87,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, qo'y va echkilarining umumiy sonidan 19,4 % i fermer xo'jaliklariga, 71,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 8,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 26,8 % i fermer xo'jaliklariga, 26,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 46,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

**2026 - yilning 1- yanvar holatiga hududlar kesimida
chorva mollari va parrandalar bosh soni, (ming bosh)**

	Yirik shoxli qoramollar	Qo'y va echkilar	Parrandalar
Buxoro viloyati	1 403,9	2 515,4	8 830,5
Buxoro shahar.	8,1	23,3	258,2
Kogon shahar	1,6	4,7	308,3
Olot tumani	124,5	243,7	293,9
Buxoro tumani	130,2	178,5	913,4
Vobkent tumani	120,5	117,2	462,3
G'ijduvon tumani	169,4	347,1	1 116,7
Kogon tumani	94,4	99,0	1 121,3
Qorako'l tumani	157,4	297,8	432,4
Qorovulbozor tumani	23,8	168,9	251,3
Peshku tumani	140,4	281,6	242,9
Romitan tumani	136,9	217,6	684,0
Jondor tumani	143,2	371,1	2 375,0
Shofirkon tumani	153,5	241,0	370,8

V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi – sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Fermer xo'jaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

Dehqon xo'jaligi – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo'jaligi boshlig'iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo'jaligi a'zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo'jalikdir.

Tomorqa xo'jaligi – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bog'liq mehnat faoliyatidir.

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni – xo'jalik toifalari bo'yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o'z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo'y va echkilar, cho'chqalar va h.k.)

Go'sht yetishtirish – so'yish uchun sotilgan hamda o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o'z ichiga oladi.

Sut yetishtirish – yosh mollarga ichirish uchun sog'ib olingan sut va og'iz sutini qo'shgan holda, haqiqatda sog'ib olingan sigir, echki, qo'y, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sog'ib olishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda jo'ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o'z ichiga oladi.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/qishloq-xo-jaligi-va-ekologiya/685-qishloq-o-rmon-va-baliqchilik-xo-jaligi-mahsulot-xizmat-lari-yalpi-ishlab-chiqarishini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Qishloq xo'jaligi va atrof-muhit
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
Sh. Shodiyev
65 223-44-45 (81-10)
